



Ismoiljon DILBARJONOV,
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi
E-mail: ismoiljondilbarjonov55@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5504-0859

Andijon davlat chet tillari instituti professori, DSc M.Abduvaliyev taqrizi asosida

O‘ZBEK TILIDA SPORT TERMINLARINI STANDARTLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish masalalarini tadqiq qiladi. Ish davomida ingliz va rus tillaridan o‘zlashgan sport atamalarining o‘zbek tilidagi qo‘llanilishi, variantlilik darajasi va me‘yorlashtirish imkoniyatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, terminlarning bir xil normativ shaklda ishlatilmasligi, lug‘at izohlari bilan real nutq o‘rtasidagi nomuvofiqlik hamda ommaviy axborot vositalarida turli shakllarda ifodalanishi terminologik barqarorlikni sekinlashtiradi. Shu bilan birga, ilmiy asoslangan standartlashtirish va kommunikativ samaradorlikni hisobga olgan yondashuv o‘zbek sport tilining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Maqolada terminlarni me‘yorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sport terminologiyasi, Standartlashtirish, Termin variantliliigi, Ingliz tilidan o‘zlashuv, O‘zbek tili, Fonetik moslashuv, Tarjima va o‘zbekchallashtirish, Ommaviy axborot vositalari, Sport sharhlari, Kommunikativ samaradorlik, Lug‘at izohlari, Ilmiy-amaliy tavsiyalar.

PROPOSALS FOR THE STANDARDIZATION OF SPORTS TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article examines the issues of standardizing sports terminology in the Uzbek language. The study investigates how sports terms borrowed from English and Russian are used in Uzbek, their degree of variation, and possibilities for standardization. The results show that inconsistent use of terms, discrepancies between dictionary definitions and actual usage, and multiple forms appearing in mass media slow down terminological stability. At the same time, a scientifically grounded approach to standardization that considers communicative effectiveness supports the development of the Uzbek sports language. Practical recommendations for standardizing terminology are provided.

Keywords: Sports terminology, Standardization, Terminological variation, Borrowing from English, Uzbek language, Phonetic adaptation, Translation and Uzbekization, Mass media, Sports commentary, Communicative efficiency, Dictionary definitions, Scientific-practical recommendations.

ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО СТАНДАРТИЗАЦИИ СПОРТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы стандартизации спортивной терминологии в узбекском языке. Исследование анализирует, как заимствованные из английского и русского языков спортивные термины используются в узбекском языке, степень их вариативности и возможности стандартизации. Результаты показывают, что несогласованное использование терминов, расхождения между словарными определениями и фактическим употреблением, а также наличие нескольких форм в средствах массовой информации замедляют формирование терминологической стабильности. В то же время научно обоснованный подход к стандартизации с учетом коммуникативной эффективности способствует развитию узбекского спортивного языка. Приведены практические рекомендации по стандартизации терминологии.

Ключевые слова: Спортивная терминология, Стандартизация, Вариативность терминов, Заимствование из английского, Узбекский язык, Фонетическая адаптация, Перевод и узбекизация, СМИ, Спортивные комментарии, Коммуникативная эффективность, Словарные определения, Научно-практические рекомендации.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida sport sohasi xalqaro axborot almashuvi eng faol kechayotgan sohalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sport musobaqalari, ilmiy tadqiqotlar, ommaviy sport sharhlari va rasmiy hujjatlar asosan xalqaro terminlar orqali ifodalanadi. Bu holat o‘zbek tilida sport terminologiyasining kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida terminlarning noturg‘unligi, variantlarda qo‘llanilishi va me‘yoriy birlikning yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda [1]. O‘zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish davlat tilining sohaviy nufuzini oshirish, sportga oid ilmiy va amaliy matnlarning aniqligi hamda yagona me‘yor asosida qo‘llanilishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amaliyotda sport terminlarining katta qismi ingliz va rus tillaridan o‘zlashgan bo‘lib, ular o‘zbek tilida asl shaklda, fonetik moslashgan holda yoki tarjima variantlari bilan bir qatorda ishlatilmoqda. Natijada bir tushunchaning bir nechta nom bilan ifodalanishi terminologik tizimning barqaror shakllanishini qiyinlashtirmoqda [2].

Sport terminologiyasidagi ushbu holatlar ayniqsa ommaviy axborot vositalari, sport jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarda yaqqol kuzatiladi. Terminlarning lug‘atlardagi izohi bilan real nutqiy qo‘llanilishi o‘rtasidagi nomuvofiqlik, shuningdek, terminlarning yagona normativ shaklga ega emasligi sport terminlarini ilmiy asosda standartlashtirish masalasini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda [3].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat tilining sohaviy rivojini ta‘minlash, terminologik tizimlarni tartibga solish va me‘yorlashtirishga qaratilgan huquqiy hamda ilmiy tashabbuslar kuchaymoqda. Mazkur jarayonda sport terminologiyasini izchil o‘rganish, mavjud terminlarni tizimlashtirish va ularning eng maqbul variantlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Terminlarni qat‘iy cheklashdan ko‘ra, ularning kommunikativ ehtiyojlar asosida shakllangan va amaliyotda keng qo‘llanilayotgan shakllarini ilmiy mezonlar asosida tanlash va tavsiya etish samaraliroq yondashuv hisoblanadi [4].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish zaruratini ilmiy asoslash, mavjud terminologik muammolarni tahlil qilish hamda sport terminologiyasini me'yorlashtirish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida sport terminlarining qo'llanish xususiyatlari, ularning variantlilik darajasi va standartlashtirish imkoniyatlari o'rganilib, o'zbek sport terminologiyasini rivojlantirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili. Sport terminologiyasini tadqiq etish va uni me'yorlashtirish masalalari zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, o'zbek tilida sport terminlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning qo'llanish xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek tilida sport terminologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ayrim ilmiy ishlarda terminlarning izohlanishi, semantik aniqligi va ularning ommaviy kommunikatsiyadagi funksional qo'llanishi alohida tahlil qilingan. Xususan, sport terminlarini keng auditoriyaga yetkazish, ularning tushunarligini ta'minlash va terminologik birliklarning ijtimoiylashuv jarayonlari muhim omil sifatida baholanadi [5].

Boshqa tadqiqotlarda sportning ayrim turlariga oid terminlar, ayniqsa futbol terminologiyasi misolida, ingliz tilidan kirib kelgan atamalarining o'zbek tilidagi qo'llanishi, ularning fonetik moslashuvi va semantik o'zgarishlari o'rganilgan. Mazkur yondashuv terminlarning milliy til me'yorlariga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan variantlilikni aniqlash va baholash imkonini beradi [6].

Shuningdek, zamonaviy sport atamalarining shakllanishi va ularning nutqiy amaliyotdagi qo'llanishi bilan bog'liq tadqiqotlar terminologik tizimning dinamik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Bu ishlarda sport terminlarining tez yangilanib borishi, ularning xalqaro manbalardan kirib kelishi va ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqalishi asosiy omillar sifatida qayd etiladi [7].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar sport terminologiyasini o'rganishda muhim nazariy asosni ta'minlaydi. Biroq terminlarni standartlashtirish, ularning optimal me'yoriy variantlarini tanlash va amaliyotga tatbiq etish masalalari hali yetarli darajada kompleks tarzda o'rganilmagan. Shu sababli sport terminologiyasini tizimli tahlil qilish va uni me'yorlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish masalalarini tizimli va ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi asosan sifat (qualitative) tahlilga tayangan bo'lib, sport terminlarining normativ manbalardagi izohi hamda real nutqiy amaliyotdagi qo'llanilish holatlarini chuqur tahlil qilishni ko'zda tutadi [8].

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, semantik va terminologik tahlil usullari kompleks tarzda qo'llanildi. Tavsifiy metod orqali sport terminlarining hozirgi qo'llanilish holati aniqlangan bo'lsa, qiyosiy tahlil yordamida ingliz va rus tillaridan o'zlashgan terminlarning o'zbek tilidagi muqobil va variant shakllari solishtirildi. Semantik tahlil esa terminlarning ma'no hajmi, semantik kengayish yoki torayish holatlarini aniqlashga xizmat qildi [9].

Tadqiqot uchun empirik material sifatida sport terminologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, izohli va terminologik lug'atlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan sportga oid matnlar tanlab olindi. Ayniqsa futbol, kurash, boks, yengil atletika va elektron sport sohasiga oid terminlarning qo'llanishi alohida tahlil qilinib, ularning me'yoriy shakllari bilan amaliy variantlari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi [10].

Bundan tashqari, sport terminlarining ommalashuv darajasi va kommunikativ samaradorligini aniqlash maqsadida sport jurnalistlari, murabbiylar hamda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning nutqiy faoliyati kuzatildi. Ushbu yondashuv terminlarning real kommunikativ

muhitdagi qo'llanilishini normativ manbalar bilan qiyoslash imkonini berdi [11].

Metodologik tahlil davomida sport terminlarini standartlashtirish uchun asosiy mezonlar sifatida terminlarning aniqligi, ixchamligi, tushunarligi, o'zbek tili me'yorlariga mosligi hamda xalqaro sport kommunikatsiyasi talablariga muvofiqligi belgilandi. Mazkur mezonlarga tayangan holda terminlarning eng maqbul variantlari ajratilib, ularni me'yorlashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi [12].

Tadqiqot yakunida olingan natijalar tizimlashtirilib, sport terminologiyasini standartlashtirish jarayonida tilshunoslar, sport sohasi mutaxassislari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlikning metodologik ahamiyati asoslab berildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish jarayoni murakkab va ko'p omilli hodisa ekanini ko'rsatdi. Tahlil qilingan manbalar asosida sport terminlarining yagona normativ shaklda qo'llanilmasligi, ayrim tushunchalarning bir nechta variant orqali ifodalanishi hamda lug'atlardagi izohlar bilan real nutqiy amaliyot o'rtasida nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlandi [10].

Aniqlanishicha, sport terminlarining katta qismi ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, ularning o'zbek tilidagi qo'llanishi uch asosiy model asosida amalga oshmoqda: terminlarning asl shaklda ishlatilishi (match, time-out, penalty), fonetik moslashuv asosidagi variantlari (taym-aut, penalti) hamda tarjima orqali ifodalangan muqobil birliklar (uchrashuv, tanaffus, jarima zarbasi) [11]. Ushbu modellarning parallel qo'llanishi terminologiyada variantlilik darajasining yuqoriligini ko'rsatadi va yagona me'yoriy shaklni shakllantirishni murakkablashtiradi.

Xususan, ommaviy axborot vositalari va sport sharhlarida bir xil terminning turli shakllarda qo'llanishi keng tarqalgan. Masalan, match va uchrashuv, corner va burchak to'pi birliklarining bir matn doirasida parallel ishlatilishi auditoriya uchun aniq va barqaror termin tanlashni qiyinlashtiradi [12]. Shu bilan birga, mahalliy sport turlariga oid terminlar ("kurash", "belbog'li kurash", "qo'l jangi") nisbatan barqaror bo'lib, ularning yagona shaklda qo'llanishi terminologik tizimning izchilligini ta'minlayotgani kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport terminologiyasidagi noturg'unlik faqat lingvistik omillar bilan emas, balki global sport kommunikatsiyasi, ommaviy axborot vositalarining tezkorligi va sport jurnalistikasi uslubiy xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Tezkor axborot uzatish zarurati ko'pincha xalqaro yoki qisqartirilgan terminlardan foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa normativ birliklarning barqarorlashuv jarayonini sekinlashtiradi [10-11].

Shu bilan birga, olingan natijalar terminologik variantlilikni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to'liq asosli emasligini ko'rsatdi. Aksincha, bu jarayon sport leksikasining boyishiga, yangi terminlarning shakllanishiga va o'zbek tilining xalqaro sport diskursiga moslashuviga xizmat qilmoqda. Amaliyotda keng qo'llanilayotgan ayrim terminlar vaqt o'tishi bilan barqarorlashib, kelgusida standart variant sifatida mustahkamlanishi mumkin [12].

Umuman olganda, sport terminlarini standartlashtirish jarayonida faqat lingvistik me'yorlarga tayanish yetarli emas. Terminlarning qo'llanilish chastotasi, kommunikativ samaradorligi va auditoriya tomonidan qabul qilinish darajasini ham hisobga olish zarur. Bu esa terminologiyani me'yorlashtirishda moslashuvchan, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi hamda tilshunoslar, sport mutaxassislari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot o'zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish dolzarb va tizimli yondashuvni talab qiluvchi masala ekanini ko'rsatdi. Sport terminologiyasidagi noturg'unlik va ikki tillilik ba'zan terminlarning yagona shaklda ishlatilishini qiyinlashtirsa-da, bu jarayon o'zbek sport tilining rivojlanishi uchun tabiiy bosqich sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, terminlarni standartlashtirishda faqat lingvistik mezonlar yetarli emas. Ularning real nutqdagi qo'llanilishi, OAVdagi funksionalligi va auditoriya

tomonidan qabul qilinishi ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zlashgan atamalarni me'yorlashtirishda muvozanatli yondashuv talab etiladi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Sport sohasidagi mutaxassislar, tilshunoslar va jurnalistlardan iborat ekspert guruhlarini shakllantirish;

Sport terminlari bo'yicha yagona elektron baza va yangilanib boruvchi onlayn lug'atlarni yaratish;

OAV uchun tavsiya etilgan me'yoriy shakllarni o'z ichiga olgan qo'llanmalar tayyorlash;

Oliy ta'lim muassasalarida standartlashtirilgan terminlardan izchil foydalanishni ta'minlash.

Shuningdek, terminlarni majburan milliyashtirish yoki faqat xalqaro shaklda ishlatishdan ko'ra, ularning tushunarli va kommunikativ samarali bo'lishini asosiy mezon sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv sport terminologiyasining barqarorligi va tushunarligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida sport terminlarini standartlashtirish bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan va amaliy moslashuvni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu ish sport tilining boyligini oshirish, terminlarning izchilligini ta'minlash va zamonaviy sport diskursida o'zbek tilining mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov A.A. O'zbek tilida sport terminlari: lingvistik tahlil. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. – 184 b.
2. To'xtayev A.B. O'zbek tilida zamonaviy sport terminlarini standartlashtirish muammolari // Filologiya masalalari. – 2021. – №3. – B. 45–51.
3. Hasanov Sh.S. Sport terminologiyasida fonetik moslashuv xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2019. – №4. – B. 22–27.
4. Qodirov B.N. Sport terminlarini o'zbek tilida qo'llashning lingvistik asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 156 b.
5. Sobirova M. O'zbek tilida sport terminlarini izohlash va targ'ib qilish. Toshkent: Jurnalistika va OAV universiteti nashriyoti, 2022. – 142 b.
6. Ashurov B. O'zbek tilida futbol terminlari // Filologiya masalalari. – 2020. – №4. – B. 33–39.
7. Yunusov S. Zamonaviy futbol atamaları // SamDU ilmiy axborotnomasi. – 2022. – №2. – B. 14–21.
8. To'liqinov Z. Sport terminlarining o'zbek tilidagi o'zlashuvi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2018. – №4. – B. 45–52.
9. G'afurova Z. Terminlarning ijtimoiylashuvi va ekspressivligi // Til va jamiyat. – 2017. – №3. – B. 12–17.
10. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 272 p.
11. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999. – 345 p.
12. Bergenholtz H., Tarp S. Manual of Specialised Lexicography: The Preparation of Specialised Dictionaries. Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 350 p.